



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUV VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	



BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Z. Sh. Matniyozova
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida bandlikni ta'minlashning innovatsion yo'nalishlari tahlil qilingan. Hududda aholi, xususan, yoshlar bandligini oshirishda dual ta'lim tizimi, raqamli iqtisodiyot va startap loyihalarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining yangi ish o'rinlarini yaratishdagi o'rni baholangan.

Kalit so'zlar: innovatsion bandlik, dual ta'lim, raqamli iqtisodiyot, Xorazm viloyati, startap ekotizimi, mehnat bozori transformatsiyasi, AKT sektori, yoshlar bandligi.

Аннотация. В статье проанализированы инновационные направления обеспечения занятости в Хорезмской области. Раскрыто значение системы дуального образования, цифровой экономики и стартап-проектов в повышении занятости населения, в частности молодежи. Также оценена роль сферы информационно-коммуникационных технологий в создании новых рабочих мест.

Ключевые слова: инновационная занятость, дуальное образование, цифровая экономика, Хорезмская область, стартап-экосистема, трансформация рынка труда, сектор ИКТ, занятость молодежи.

Abstract. This article analyzes innovative approaches to employment development in the Khorezm region. The importance of the dual education system, the digital economy, and startup projects in increasing employment, particularly youth employment, is examined. The role of the information and communication technology sector in creating new jobs is also assessed.

Keywords: innovative employment, dual education, digital economy, Khorezm region, startup ecosystem, labor market transformation, ICT sector, youth employment.

KIRISH

Global iqtisodiy integratsiya va texnologik taraqqiyot sharoitida aholining samarali bandligini ta'minlash har bir hudud uchun nafaqat ijtimoiy, balki strategik iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston demografik tuzilmasida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushining 25,7 foizni tashkil etishi mehnat bozorida zamonaviy, moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zaruratini kuchaytirmoqda.

Xorazm viloyati misolida olib qaralganda, hudud iqtisodiyoti an'anaviy qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda yuqori texnologiyali sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish yo'nalishida izchil shakllanib bormoqda. Ushbu jarayon, o'z navbatida, "nazariya va amaliyot" integratsiyasiga asoslangan dual ta'lim modellarini kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali masofaviy ish o'rinlarini ko'paytirish hamda innovatsion hududlar tajribasini ommalashtirishni taqozo etadi. Maqolaning maqsadi Xorazm viloyatida bandlikni ta'minlashning innovatsion yo'nalishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari belgilashdan iborat.


MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrda Jon Meynard Keyns o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" nomli asarida davlatning bandlikni ta'minlashdagi faol rolini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu yondashuv bandlik masalasiga oid nazariy qarashlarning rivojlanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston sharoitida mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlari va aholi bandligini ta'minlash masalalari mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, akademik Q. X. Abdurahmonovning ilmiy ishlarida mehnat iqtisodiyoti, bandlik siyosati va inson kapitalini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari batafsil yoritilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlar N. M. Mahmudov, Y. Abdullayev va B. Y. Xodiyevlarning ilmiy



izlanishlarida bozor islohotlari sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda bandlikni ta'minlash strategiyalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha mehnat resurslari soni dinamikasi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Xorazm viloyatida bandlikni ta'minlashning innovatsion yo'nalishlarini o'rganishda tizimli yondashuv, statistik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida viloyatda mehnat resurslari soni, ularning doimiy aholi tarkibidagi ulushi, axborot va aloqa sohasida ro'yxatga olingan korxonalar dinamikasi hamda dual ta'lim tizimi bo'yicha mavjud ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion hududlar, startap loyihalari, raqamli platformalar va o'zini o'zi band qilish mexanizmlarining hududiy bandlikka ta'siri ilmiy jihatdan baholandi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda 2014–2026-yillar oralig'idagi statistik ko'rsatkichlar asos qilib olindi. Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida bandlikni oshirishda raqamli iqtisodiyot, dual ta'lim va innovatsion tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligini asoslashga xizmat qiladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida so'nggi o'n yilliklarda kuzatilayotgan demografik o'sish mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi ishchi kuchi oqimining ortishiga xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, hududda yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va bandlik siyosatini izchil tashkil etish zaruratini kuchaytirmoqda.

1-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm viloyatida mehnat resurslarining mutlaq soni barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, 2014-yilda mehnat resurslari soni 952,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib ushbu ko'rsatkich ilk bor 1 millionlik chegaradan oshib, 1000,6 ming kishiga yetgan. 2024-yil holatiga ko'ra esa viloyatning mehnat salohiyati 1080,3 ming kishini tashkil etgan.

Mazkur o'sish, ya'ni taxminan 128,1 ming kishi yoki 13,5 foizga yaqin ko'payish, viloyatda ishchi kuchi taklifining izchil ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mehnat resurslari umumiy sonining oshishi hududda innovatsion bandlik shakllarini rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, dual ta'lim tizimini kengaytirish hamda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun muhim demografik asos yaratmoqda.

Qiziqarli jihati shundaki, mehnat resurslarining umumiy soni oshgan bo'lsa-da, ularning doimiy aholi tarkibidagi ulushi nisbatan pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu holat hududda bandlik siyosatini faqat miqdoriy ko'rsatkichlar asosida emas, balki mehnat resurslarining sifat tarkibi, kasbiy malakasi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlariga mosligi nuqtayi nazaridan ham takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi (2-rasm).




2-rasm. Xorazm viloyatida mehnat resurslarining doimiy aholi tarkibidagi ulushi dinamikasi

Agar 2014-yilda mehnat resurslari doimiy aholining 56 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 53,6 foizga pasaygan.

Mazkur holatni ikki asosiy omil bilan izohlash mumkin. Birinchidan, viloyatda umumiy aholi sonining o'sish sur'ati mehnat resurslari o'sish sur'atiga nisbatan yuqoriroq bo'lmoqda. Ikkinchidan, aholi tarkibida mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lganlar, ya'ni bolalar ulushining ortib borishi kuzatilmoqda. Bu esa kelgusida mehnat bozoriga kirib keladigan yosh avlod vakillarini munosib va sifatli ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Demografik yuklamaning ortib borishi hamda mehnat bozoriga kirib kelayotgan yosh avlod vakillarini sifatli ish o'rinlari bilan ta'minlash zarurati hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni, xususan, yuqori texnologiyali sohalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Bu borada viloyatda raqamli transformatsiya jarayonlari va axborot texnologiyalari sektorining kengayishi o'sib borayotgan ishchi kuchi uchun yangi imkoniyatlar yaratishda muhim harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Quyidagi statistik ma'lumotlar Xorazm viloyatida ushbu sohaning rivojlanish dinamikasini yaqqol aks ettiradi (3-rasm).



3-rasm. Xorazm viloyatida axborot texnologiyalari sektorining rivojlanish dinamikasi



Xorazm viloyatida axborot va aloqa sohasida ro'yxatga olingan tadbirkorlik subyektlari soni so'nggi 12 yil ichida barqaror va jadal sur'atlarda o'sib borgan. Agar 2014-yilda viloyatda ushbu yo'nalishda jami 213 ta korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 256 taga yetgan.

Ayniqsa, 2021-yildan boshlab sohadagi o'sish sur'ati yanada jadallashganini ko'rish mumkin. Xususan, 2021-yilda ushbu yo'nalishdagi korxonalar soni 302 tani, 2023-yilda 440 tani, 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra esa 731 tani tashkil etgan. Ushbu raqamlar sohada korxonalar bazasi qariyb 3,5 baravarga kengayganini ko'rsatadi. Har bir yangi ro'yxatga olingan subyekt potensial yangi ish o'rinlari, innovatsion xizmatlar va soliq tushumlari manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ro'yxatga olingan korxonalar sonining 213 tadan 731 taga yetishi viloyat bandlik tizimiga bir necha yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchiidan, yuqori malakali ish o'rinlari shakllanmoqda. Axborot va aloqa sohasi an'anaviy tarmoqlardan farqli ravishda intellektual mehnat, raqamli ko'nikmalar va zamonaviy texnologik bilimlarga asoslanadi. 731 ta korxonaning mavjudligi viloyatdagi dasturchilar, tizim ma'murlari, raqamli marketing mutaxassisleri hamda boshqa AKT yo'nalishidagi kadrlar uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Ikkinchiidan, yoshlar bandligini ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda. AKT sohasi, asosan, yosh avlod vakillarini ish bilan ta'minlashda muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ro'yxatga olingan korxonalar sonining ortishi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga o'z mutaxassisligi bo'yicha hududning o'zida qolib ishlash imkonini beradi.

Uchinchiidan, tadbirkorlik tashabbuslari faollashmoqda. Ro'yxatga olingan subyektlar sonining ortishi viloyatda startap ekotizimi shakllanib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa aholining o'zini o'zi band qilishi, kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirishi hamda yangi ishchi kuchini iqtisodiy faoliyatga jalb etishiga xizmat qiladi.

Mintaqada bandlikni oshirishning yana bir muhim yo'nalishi muayyan tumanlarni innovatsion hududga aylantirishdir. Gurlan va Urganch tumanlari bu borada tajriba maydonchasi sifatida tanlangan. 2022–2024-yillar davomida Xorazm viloyatida 25 ta ilmiy, startap va tijoratlashtirish loyihasi moliyalashtirilgan. Buning natijasida Gurlan tumanida 7 ta, Urganch shahrida esa 4 ta yangi innovatsion korxonalar tashkil etilgan, 243 ta yangi ish o'рни yaratilgan hamda 18 turdagi innovatsion mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Xorazm viloyatida bandlikni ta'minlashning eng samarali innovatsion yo'nalishlaridan biri dual ta'lim tizimi hisoblanadi. Ushbu model "nazariya + amaliyot" tamoyiliga asoslanib, o'quvchilarga texnikumni bitirmasdan turib ish o'rniga ega bo'lish imkonini beradi. Hozirgi kunda viloyatdagi 36 ta texnikum 889 ta korxonalar bilan hamkorlik o'rnatgan bo'lib, 1 326 nafar o'quvchi dual ta'lim shaklida tahsil olmoqda. Buning amaliy isboti sifatida Tuproqqal'a tumanidagi politexnika texnikumi tajribasini keltirish mumkin. Mazkur texnikumning 98 nafar o'quvchisi "UzAuto Motors" AJning Xorazm filialida amaliyot o'tab, bir vaqtning o'zida 3 million so'mdan 3,5 million so'mgacha ish haqi olmoqda. Kelgusida ushbu tizim qamrovini 7 ming kishiga yetkazish rejalashtirilgan.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mintaqaviy bandlik tuzilmasini sifat jihatidan yangilamoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmaning, xususan, internet qamrovi va mobil aloqa imkoniyatlarining kengayishi real sektor faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xorazm viloyatida raqamli iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash maqsadida AI-Xorazmiy nomidagi yangi universitet tashkil etilmoqda. Ushbu oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yo'nalishida mutaxassislar tayyorlanishi viloyatda yuqori unumdorlikka ega bo'lgan "aqlli" ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli platformalar, jumladan, osonish.uz orqali ish beruvchi va ish izlovchilarni sun'iy intellekt yordamida bog'lash mexanizmlari joriy etilmoqda.

Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi sohasida norasmiy bandlikni bosqichma-bosqich rasmiylashtirish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada o'zini o'zi band qilish tizimining joriy etilishi bandlikni kengaytirishning innovatsion vositalaridan biriga aylandi. 2020-yildan boshlab jismoniy shaxslarga 100 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha soddalashtirilgan tartibda ro'yxatdan o'tish imkoniyati berildi. Ushbu tizim orqali ilgari norasmiy faoliyat yuritgan ustalar, repetitorlar, hunarmandlar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi shaxslar rasmiy mehnat staji hamda ijtimoiy himoya imkoniyatlariga ega bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyati mehnat bozorini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hududda an'anaviy agrar bandlik modelidan intellektual va yuqori texnologiyali iqtisodiyot modeliga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni izchil davom etmoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan demografik tendensiyalar, ya'ni aholi soni o'sish sur'atining mehnat resurslari o'sish sur'atiga nisbatan yuqoriligi hamda bolalar ulushining ortib borishi, yaqin istiqbolda mehnat bozoriga kirib keladigan yosh avlod uchun bugungi kundanoq mustahkam iqtisodiy va kasbiy poydevor yaratishni taqozo etmoqda.



Mazkur vazifalarni tizimli hal etishda dual ta'lim tizimi nafaqat ta'lim shakli, balki ishlab chiqarish va ilm-fanni bog'lovchi strategik ko'prik vazifasini bajarmoqda. Viloyatdagi texnikumlarning yirik sanoat korxonalari, xususan, "UzAuto Motors" AJ kabi ishlab chiqarish subyektlari bilan integratsiyalashuvi kadrlar tayyorlash jarayonining amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlamoqda. Bu esa yoshlarga ta'lim jarayonining o'zidayoq amaliy ko'nikma, munosib ish haqi va barqaror ish o'rniga ega bo'lish imkonini bermog'da. Ushbu tajribani viloyatning boshqa tumanlarida ham keng joriy etish hududiy bandlik darajasini oshirishning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlari viloyat mehnat bozorining sifat tarkibini yangilashga xizmat qilmoqda. AKT sohasidagi korxonalar sonining so'nggi yillarda qariyb 3,5 baravarga ortib, 731 taga yetgani hududda intellektual mehnatga bo'lgan talabning oshib borayotganini ko'rsatadi. Al-Xorazmiy nomidagi universitetning tashkil etilishi va raqamli platformalar, jumladan, osonish.uz tizimining joriy qilinishi Xorazm viloyatini mamlakatning muhim IT markazlaridan biriga aylantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Gurlan va Urganch tumanlaridagi innovatsion hudud tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash qisqa muddatda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, innovatsion korxonalar faoliyatini kengaytirish hamda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'zini o'zi band qilish mexanizmlari orqali norasmiy bandlikni bosqichma-bosqich rasmiylashtirish aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va mehnat faoliyatini qonuniy asosda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Xorazm viloyatida bandlikning innovatsion yo'nalishlarini rivojlantirish nafaqat aholi bandligini ta'minlash, balki viloyat iqtisodiyotining kelgusidagi raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Kelgusida raqamli iqtisodiyot ulushini oshirish, dual ta'lim qamrovini kengaytirish, startap ekotizimini qo'llab-quvvatlash va o'zini o'zi band qilish tizimini yanada rivojlantirish orqali viloyat mehnat bozoridagi demografik imkoniyatlarni iqtisodiy o'sish omiliga aylantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga oid qaror va farmonlari. – Toshkent, 2023–2025.
3. Ilyosova D. I. Aholi turmush darajasi va dinamikasini statistik o'rganish // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024.
4. Davlat statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasi va farovonligini o'rganish bo'yicha statistik ma'lumotlar.
5. Isakjanova S. M. Yoshlar tadbirkorligining bandlikni ta'minlashdagi roli va ta'siri. – 2026-yil 11-fevral.
6. Sobirov B. K. Raqamli iqtisodiyotning O'zbekistondagi bandlik tuzilmasiga ta'siri // Green Economy and Development. – 2025. – Vol. 3, No. 12. – B. 1938–1943.
7. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent, 2004.
8. G'oyibnazarov B. K., Abdullayev Y. Turmush darajasi indikatorlari haqida ilmiy maqolalar // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2018–2022.
9. Eshpo'latova Sh. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash siyosati tarixi (1991–2025) // Modern Education and Development Journal. – 2025.
10. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Rasmiy statistika ma'lumotlari. – URL: <https://www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/uzr>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>